

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



O'ZBEK IMO-ISHORA TILI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lism
Ta'lism sohasi: 110000 – Ta'lism
Ta'lism yo'nalishi: 60112700-Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik faoliyati

Fan/modul kodi O'IIT 110	O'quv yili 2023-2024	Semestr 1-2	ECTS - Kreditlar 5-5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4-4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek imo-ishora tili	120	180	300
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad –talabalarga maxsus pedagoglariga o'zbek tili ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz me'yorlari, lug'at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, bolalar adabiyoti va bolalar folklori, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti haqida ma'lumot berish, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir.</p> <p>Fanni o'qitish vazifasi - Xususiy tilshunoslik esa o'z urganish manbaiga ko'ra ayrim bir tilga (rusistika), biror tillar guruhi yoki oilasiga (romanistika, turkiyshunoslik), bir mintaka yoki tipologik guruhga mansub tillarga (bolqonshunoslik, kavkazshunoslik) xos xususiyatlarni o'rghanadi</p> <p style="text-align: center;">II. Nazariy qism (ma'ruba mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">I SEMESTR</p> <p>1-mavzu. O'zbek imo-ishora tili fanining maqsad va vazifalari</p> <p>O'zbek imo-ishora tilini yanada rivojlantirish va uning huquqiy maqomini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, undan muloqot vositasi sifatida foydalanishni rag'batlantirib borish; o'zbek imo-ishora tili va o'zbek imo-ishora tili zamonaviy axborot texnologiyalar, innovatsion vositalar va usullarni keng qo'llash bilishi kerak.</p> <p>2-mavzu. Umumiyl Tilshunoslikdan ma'lumot</p> <p>Tilshunoslikning, xususiy tilshunosliklardan farqli ravishda, tilni umuman insonga xos hodisa, insonning ajralmas qismi sifatida o'rganuvchi bo'limi. Umumiyl tilshunoslikning asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiyl belgi—xususiyatlarni aniklash va yoritishdir. Bu vazifa ayrim tillar va til guruxlari yuzasidan kuzatishlarni umumlashtirish; til qurilishining, tabiiy va mashina tillari semantikasi va sintaksisining, shuningdek, fonetikaning (faqat tabiiy tillarda) eng umumiyl, universal krnuniyatlarini aniklash orqali hal etiladi..</p> <p>3-mavzu. Til va nutq</p> <p>utq tilning ma'lum paytda va ma'lum o'rinda namoyon bo'lishidir. Ayrim olimlar til va nutq tushunchalarini farqlashda shaxmat o'yinini misol qilib keltirishadi.</p>			

Shaxmat donalari, taxtasi, shaxmat o‘yini qoidalari yig‘indisi tilga qiyos qilinadi. Har bir shaxmatchining o‘yin uslubi, o‘ziga xos xususiyatlarini esa nutqqa o‘xshatishadi.

4-mavzu. O’zbek imo-ishora tili fonetikasi

Fonetika (yunoncha: phonetikos — tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovozli) — 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo‘lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo‘g‘in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o‘rganuvchi bo‘limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslardan fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma’noli birliklarning yozilish qoidalari (imlo)ni ham qo‘sib, uning o‘rganish obyektini yanada kengaytiradilar. O’zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari [ularning artikulyatsion, akustik, perseptiv (psixofonetik) va funksional tomonlari] va ohang (bo‘g‘in, sintagma, urg‘u va boshqalar) o‘rganiladi.

5-mavzu. O’zbek adabiy tili me’yorlari

Adabiy til me`yorlariga to`la mos kelishi uchun bu adabiy me`yorlarni u mukammal o‘rganmog‘i hayotiy zaruratdir. Agar o`qituvchi nutqi adabiy til me`yorlariga to`la mos kelsa bu o`quvchilarining yutug‘idir. Chunki bola ustozidan ta‘lim oladi, hattoki unga taqlid ham qiladi. To`g‘ri, boshqa soha vakillaridan ham adabiy til me`yorlariga rioya qilgan holda so`zlash talab etiladi. Ammo o`qituvchi kelajak avlod tarbiyachisi sifatida bola dunyoqarashini shakllantiradi. Shuning uchun ham o`qituvchi har qanday vaziyatda va har qanday sharoitda o‘z nutqiga e’tiborli bo‘lmog‘i talab etiladi

6-mavzu. O’zbek imo-ishora tili grafika va orfografiyasi

Grafika muayyan tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun maxsus shakllanrilgan optik-grafik belgilar tizimidir. Bu tizim belgilarning har biri grafik tilshunoslikda grafemalar sanaladi. Yozuvning tovush tili bilan aloqasi, odatda, ana shu grafemalar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ular grafik tizimning eng asosiy strukturaviy-funksional birligi hisoblanadi. Grafema tashqi (moddiy) va ichki (mavhum) tomonlari bor bo‘lgan bilateral birlikdir. U shu ikki tomonning - ifodalovchi va ifodalanuvchilarining uzviy bog‘liq bo‘lishiga asoslanadi.

7-mavzu. O’zbek imo-ishora tili leksikologiyasi

Leksikologiya (leksika va ...logiya) — tilshunoslikning til lug‘at tarkibi, ya’ni muayyan bir tilning leksikasini o‘rganuvchi bo‘limi. Leksikologiya har bir so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so‘z yasalishi haqidagi ta‘limot kabi sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri so‘zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir.

8-mavzu. O’zbek imo-ishora tili leksikografiyasi

Leksikografiya (qadimgi yunoncha: λεξικόν [leksika] va γράφω [grafiya] - yozu) — lug‘atlar tuzish, amaliy lug‘atchilik. Amaliy lug'atchilik lug‘atlar tuzish barobarida bir qator ijtimoiy muhim vazifalarni bajaradi: o‘z va o‘zga tillarni o‘rganish; ona tilini tavsiflash va me’yorlashtirish (izohli, imlo va boshqa turdag'i lugatlar yordamida); tillararo aloqa-munosabatni ta’minlash (ikki va ko‘p tilli lug‘atlar, so‘zlashgichlar); muayyan til leksikasini ilmiy o‘rganish (etimologik, tarixiy lug‘atlar) va boshqa leksikografiya lug‘at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz (eskirgan, dialektal, maxsus yoki chet tilga mansub) so‘zning qanday ma’no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo‘lgan.

9-mavzu. O’zbek imo-ishora tili frazeologiyasi

Frazeologiya (yun. phrasis — ifoda, ibora va ...logiya) — 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini (^Frazeologizm) uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo‘limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui. Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi Frazeologiyaning asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya’ni avvaldan tayyor bo‘lmagan) so‘z birikmalaridan farklab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

10-mavzu. O’zbek imo-ishora tili punktuatsiya qoidalari

Punktuatsiya (lot. punctum — nuqta; kichkina dog‘) — 1) alifboden tashqari bo‘lgan grafik belgilar (tinish belgilari) tizimi bo‘lib, grafika va orfografiya (imlo) bilan birligida yozma tilning asosiy vositalarini tashkil etadi. Punktuatsiyaning asosiy vazifasi yozma (bosma) matnni qismlarga ajra-tish, grafik jihatdan shakllantirishdir; 2) yozma matnni punktuatsion rasmiylashtirishni tartibga soluvchi, har bir til uchun tarixan shakllangan qoidalari, me’yorlar; 3) punktuatsion tizimi qonuniyatlarini, shuningdek, tinish belgilarining qo‘llanish me’yorlarini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi.

11-mavzu. O’zbek imo-ishora tili morfemikasi

Morfemika so‘zning nomustaqlil tarkibiy qismi haqidagi ta’limot. Ma’lumki, o‘zbek tilida, flektiv tillardagidan farqli o‘laroq, o‘zak mustaqil ma’no anglatish xususiyatiga ega. So‘zning o‘zakdan boshqa qismlari esa undan ayricha qo‘llanmaydi va ma’no anglatmaydi. Shuning uchun ular morfema deyiladi. Leksema shakllanuvchanlik, morfema shakllantiruvchanlik belgisiga ega. Nomustaqlilik tabiatini va leksemaga shakl berish vazifasiga xoslanganligi ularni morfema deb atashga olib kelgan. Morfemaning nutqiy ko‘rinishi qo‘srimcha deyiladi

12-mavzu. Hujjat turlari va ish yuritish asoslari

Ijtimoiy munosabatlar doirasida odamlar, idoralar va tashkilotlar, korxonalar va muassasalar o‘rtasida o‘zaro ish yuritishning ma'lum huquqiy asoslari mavjud

bo‘lib, ular tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish tarzida amalga oshiriladi. Hujjatlarning mukammallik darajasi ular bilan ish ko‘radigan kishilarning savodxonlik darajasi, davlatchilik tarixi va davlat ishlarini yuritishdagi mavjud an'analar, ma'lum darajada kishilar o‘rtasida shakllangan nutqiy madaniyat, ayni paytda, bu hujjatlarga bo‘ladigan zaruriyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Hujjatlarni yuritish asosan davlat ishlarini huquqiy asoslarga qo‘yish tarzida amalga oshiriladi.

13-mavzu. Hujjatlar bilan ishlash

Hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatlar, o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta’min etiladi. Hujjatlar o‘ziga xos uslubga ega. Hujjatda ot va fe’lga tegishli so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Sintaktik xususiyatidan kelib chiqib asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi. Hujjatlar tilida turg‘unlashgan, qoliplashgan so‘z birikmalaridan ko‘proq foydalananiladi. Masalan, buyruqda quyidagicha qoliplashgan tuzilmalar qo‘llanishi mumkin.

14-mavzu. Notiqlik san’ati haqida umumiylumot

Notiqlik bu — so‘z san’ati, so‘z san’ati bo‘lganda ham ohangdan libos kiyib talaffuz bilan jilolangan so‘z san’atidir. Madomiki, “so‘z” qudratini chuqur anglagan, “so‘z” ne’matining Alloh tomonidan faqatgina insonga in’om etilganligini his etgan buyuk allomalargina uni qadrlaganlar va e’zozlashga undaganlar. Shu ma’noda notiqlik san’ati boshqa san’at turlari orasida alohida mavqega ega ekanligi tan olingan haqiqatdir. Qadimda mohir notiqlargina lashkarboshlik va davlat arboblari lovozimlariga saylab tayinlanganliklari ham bu haqiqatga aniqlik kiritadi.

15-mavzu. Nutqning kommunikativ sifatlari

Nutqning madaniyigini ta’min etadigan to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylilik, ifodalilik, boylik, soflik, jo‘yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazish, shu yo‘l bilan unga ta’sir qilishdan iborat bo‘lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta’sirchanligini yuzaga keltiradi.

II SEMESTR

1-mavzu. Imo-ishora tillari

Karlar va eshitish qobiliyati zaif odamlarning o‘zlari-ku! Aynan ular imo-ishora tilining tashuvchilari hisoblanib, hayotiy tajribalariga asoslangan holda uning rivojlanishiga to‘sinqlik qilayotgan barcha muammolarni yaxshiroq bilishadi.

2-mavzu. Bosh va yuz shakli tuzulishi imo-ishoradi o’rni

Ko‘pgina mamlakatlarda imo-ishora tillari uzoq vaqtidan beri rasmiy huquqiy maqomga ega to‘laqonli tillar sifatida tan olingan. Butunjahon karlar federatsiyasi

(WFD) milliy imo-ishora tillarining qonuniy tan olinishini muntazam ravishda kuzatib boradi. Tashkilot bunday qonunchilikning yo‘qligini karlarning asosiy huquqlarining jiddiy buzilishi, deb hisoblaydi.

3-mavzu. Tana a’zolari tili

Imo-ishora tillari dunyoning 71 mamlakatida huquqiy maqomga ega. Shu bilan birga, imo-ishora tillarining huquqiy maqomini ta’minlashning bir qancha shakllari mavjud. Bu quydagilardan iborat bo‘lishi mumkin: umumiy qonun yoki qoidalarda qaysidir darajada yuridik tan olinishi; konstitutsiyaviy tan olinishi; umumiy til qonunchiligidagi tan olinishi; imo-ishora tiliga oid alohida qonun yoki akt; qonunchilikdagi nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi me’yorlar va boshqa shakllar

4-mavzu. Yuz ifodasini anglash san’ati

O‘zbek imo-ishora tiliga shaxslararo muloqot vositasi sifatidagi ta’rif allaqachon kiritilgan. «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida»gi qonunning 28-moddasida ham imo-ishora tili faqat **«shaxslararo muloqot vositasi»** sifatida e’tirof etilgan va qo‘llab-quvvatlangan.

5-mavzu. Imo-ishora xarakatlari aniqlash

«Imo-ishora tili» va «O‘zbek imo-ishora tili» atamalari o‘rtasida katta farq bor. Imo-ishora tili tana tili yordamida og‘zaki bo‘lmagan muloqotdir, o‘zbek imo-ishora tili esa o‘zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillar singari to‘laqonli til hisoblanadi

6-mavzu. Tana tili

Nogironlikni tibbiylashtirish nogironlikning ijtimoiy modelini ilgari suruvchi BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi qoidalariga ziddir. Imo-ishoralar tili, bu — kar va zaif eshituvchilar jamiyati o‘ziga xosligining noyob madaniy qismidir.

7-mavzu. Bosh va peshona shakllari

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida O‘ITning cheklangan maqomi tufayli yaqin vaqtlargacha ta’lim jarayonlarida undan foydalanish mushkul edi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida O‘IT dars soatlari kam edi, ko‘plab maxsus muktab o‘qituvchilari hali ham o‘zbek imo-ishora tilini professional darajada bilishmaydi

8-mavzu. Qoshlar imo-ishoradagi holati

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida O‘ITning cheklangan maqomi tufayli yaqin vaqtlargacha ta’lim jarayonlarida undan foydalanish mushkul edi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida O‘IT dars soatlari kam edi, ko‘plab maxsus muktab o‘qituvchilari hali ham o‘zbek imo-ishora tilini professional darajada bilishmaydi

9-mavzu. Ko'zlar imo-ishoradagi holati

Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga ko'ra, davlatning nogironligi bo'lgan shaxslarni «oqilona moslashtirish» bilan ta'minlamasligi nogironlik alomati bo'yicha diskriminatsiya ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bunday hollarda oqilona moslashtirish, bu — malakali o'zbek surdo-tarjimonidir. Boshqacha qilib aytganda, O'IT, bu — nafaqat shaxslararo muloqot, balki ta'lim olish vositasi hamdir. Biroq professional tarjimonlarning keskin taqchilligi tufayli ushbu xizmatni taqdim etish juda qiyin.

10-mavzu. Burun va o'g'iz imo-ishoradagi holati

O'zbek imo-ishora tilini o'rganish bo'yicha standartlashtirilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalarining yo'qligi uning rivojlanishini yanada og'irlashtirmoqda. Karlar jamiyati orasida tilning o'zgaruvchanligi kuchayib bormoqda, tilning o'zi ham vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarga uchrab, rivojlanib bormoqda. Masalan, ma'lumot darajasi past bo'lgan karlar orasida «ko'cha imo-ishora tili» deb ataladigan til qo'llaniladi

11-mavzu. Tish va til imo-ishoradagi holati

2005 yilda o'zbek imo-ishora tilini tizimlashtirish maqsadida O'zbekiston karlar jamiyati Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) ko'magida ilk bor O'IT lug'atini nashr ettirdi. Hozirda yagona bo'lgan O'IT lug'ati JICA ning moliyaviy ko'magida cheklangan adadda nashr etilgan edi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bu kabi nashrlar allaqachon ko'rgazmali o'quv va uslubiy qo'llanmalar sifatida qo'llanilmoqda va ixtisoslashtirilgan maktablar va universitetlarda O'ITni kasbiy o'qitishda yordami tegmoqda

12-mavzu. Iyak va quloqlar imo-ishoradagi holati

Kirill alifbosidagi daktıl alifbosi xalq ta'limi tizimi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan lotin daktıl alifbosidan farq qiladi. Shu munosabat bilan, hatto karlar jamiyatida ham lotin daktiliga o'tish zarurati haqida bahslar mavjud. Masalan, «L» va «L», «D» va «D» harflari bir-biridan tubdan farq qiladi

13-mavzu. Soch va psixologik xarakteristika

O'zbekistondagi imo-ishora tilida so'zlashuvchilar va foydalanuvchilar jamoasi bilan muhokama qilinmasdan ishlab chiqilmoqda. Lotin daktıl alifbosini O'zbekiston karlar jamiyati rahbariyati va a'zolari, professional surdo-tarjimonlar, shuningdek, «Imo-ishora tili ta'limi» yo'nalishi bo'yicha pedagogika oliv o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari va ixtisoslashtirilgan muktab-internatlar o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda rivojlantirishga chaqiramiz.

14-mavzu. Xusnihatga qarab asosiy xususiyatlarni aniqlash

O'zbek imo-ishora tilini rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalardan kelib chiqqan holda to'liq qayta ko'rib chiqish zarur. O'zbek imo-ishora tilini rivojlantirish bo'yicha vazifalar va muddatlar ko'rsatilganda, bu vaqt oralig'i, nimalar amalga oshirish mumkinligi, qanday xarajatlar talab etilishini real

baholash zarur

15-mavzu. Xarakter va qobiliyatning tasiri

O‘zbek imo-ishora tilini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab takliflarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar zarur. Aynan shunday qarorda har bir modda bo‘yicha aniq budjet belgilanishi kerak. Karlar jamiyatining huquq va manfaatlariga to‘g‘ri kelmaydigan yana bir bajarilmas hujjatni qabul qilmaslik uchun avvaldan imo-ishora tilida so‘zlashuvchilarning o‘zlarini haqiqiy mutaxassis sifatida jalb etish zarur.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: **I SEMESTR**

1. O‘zbek imo-ishora tili fanining maqsad va vazifalarini Xronologik jadvalga solish.
2. Umumiy tilshunoslikdan ma’lumotni «Agar ona tili bo‘lmasa » mavzusidagi bahs munozara orqali tashkil etish
3. Til va nutq “Nutqiy keyslar” orqali mashq qilish
4. Fonetika « O‘ng va chap » interfaol usuli va «Tekshir va to‘ldir» mavzusida bahs munozara olib borish
5. O‘zbek adabiy tili me’yorlarini “Nutqiy keyslar” orqali mashq qilish
6. Grafika va orfografiyani Esseylar tanlovini tashkil etish orqali imlo xatolarni tekshirish
7. Leksikologiyani « Charxpalak » metodi asosida savollarga javob berish
8. Frazeologiya va leksikografiyani « Iboralar tilimizda » guruhlar kesimida sahna ko‘rinishi tayyorlash
9. Morfemikani « Test » topshirig‘i va « Krossvord »lar asosida mustahkamlash
10. Hujjat turlari va ish yuritish asoslari. Guruhlar kesimida hujjat namunalarini yaratish
11. Hujjatlar bilan ishlash. «Debat» interfaol usuli orqali mustahkamlash
12. Notiqlik san’ati haqida umumiy ma’lumot. Sharq va G‘arb notiqlik san’ati asoschilari hayoti va ijodiy faoliyati asosida xronologik jadval tayyorlash
13. Nutqning kommunikativ sifatlarini «Badiiy kecha» tashkil etish orqali mustahkamlash.
14. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta’limga jalb etishda TPPKning ro’li
15. Ta’lim jarayonida o’qitishda individual dasturlarni tuzish, metodik va didaktik taminotini yaratish.

II SEMESTR

1. Imo-ishora tillari
2. Bosh va yuz shakli tuzulishi imo-ishoradi o’rni
3. Tana a’zolari tili
4. Yuz ifodasini anglash san’ati

5. Imo-ishora xarakatlari aniqlash
6. Tana tili
7. Bosh va peshona shakllari
8. Qoshlar imo-ishoradagi holati
9. Ko'zlar imo-ishoradagi holati
10. Burun va o'g'iz imo-ishoradagi holati
11. Tish va til imo-ishoradagi holati
12. Iyak va quloqlar imo-ishoradagi holati
13. Soch va psixologik xarakteristika
14. Xusnihatga qarab asosiy xususiyatlarni aniqlash
15. Xarakter va qobiliyatning tasiri

Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular: I SEMESTR

1. O'zbek imo-ishora tili fani predmeti, maqsadi va vazifalari, obyekti, tamoyillari.
2. Imo-ishora tillari
3. Bosh va yuz shakli tuzulishi imo-ishoradi o'rni
4. Tana a'zolari tili
5. Yuz ifodasini anglash san'ati
6. Imo-ishora xarakatlari aniqlash
7. Tana tili
8. Bosh va peshona shakllari
9. Qoshlar imo-ishoradagi holati
10. Ko'zlar imo-ishoradagi holati
11. Burun va o'g'iz imo-ishoradagi holati
12. Tish va til imo-ishoradagi holati
13. Iyak va quloqlar imo-ishoradagi holati
14. Soch va psixologik xarakteristika
15. Xusnihatga qarab asosiy xususiyatlarni aniqlash

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular: II SEMESTR

1. O'zbek imo-ishora tili fanining maqsad va vazifalari
2. Umumiy tilshunoslikdan ma'lumot
3. Til va nutq
4. O'zbek imo-ishora tili fonetikasi

	<p>5. O'zbek adabiy tili me'yorlari</p> <p>6. O'zbek imo-ishora tili grafika va orfografiyasi</p> <p>7. O'zbek imo-ishora tili leksikologiyasi</p> <p>8. O'zbek imo-ishora tili leksikografiyasi</p> <p>9. O'zbek imo-ishora tili frazeologiyasi</p> <p>10.O'zbek imo-ishora tili punktuatsiya qoidalari</p> <p>11.O'zbek imo-ishora tili morfemikasi</p> <p>12.Hujjat turlari va ish yuritish asoslari</p> <p>13.Hujjatlar bilan ishslash</p> <p>14.Notiqlik san'ati haqida umumiy ma'lumot</p> <p>15.Nutqning kommunikativ sifatlari</p>
3.	<p style="text-align: center;">VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>- O'zbek imo-ishora tilini yanada rivojlantirish va uning huquqiy maqomini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, undan muloqot vositasi sifatida foydalanishni rag'batlantirib borish; o'zbek imo-ishora tili va o'zbek imo-ishora tili zamonaviy axborot texnologiyalar, innovatsion vositalar va usullarni keng qo'llash bilishi kerak. Tilshunoslikning, xususiy tilshunosliklardan farqli ravishda, tilni umuman insonga xos hodisa, insonning ajralmas qismi sifatida o'rganuvchi bo'limi. Umumiy tilshunoslikning asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiy belgi—xususiyatlarni aniklash va yoritishdir. Bu vazifa ayrim tillar va til guruxlari yuzasidan kuzatishlarni umumlashtirish; til qurilishining, tabiiy va mashina tillari semantikasi va sintaksisining, shuningdek, fonetikaning (faqat tabiiy tillarda) eng umumiy, universal krnuniyatlarini aniklash orqali hal etiladi. Xususiy tilshunoslik esa o'z urganish manbaiga ko'ra ayrim bir tilga (rusistika), biror tillar guruhi yoki oilasiga (romanistika, turkiyshunoslik), bir mintaka yoki tipologik guruhga mansub tillarga (bolqonshunoslik, kavkazshunoslik) xos xususiyatlarni o'rganadi, tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</p> <p>- O'zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari [ularning artikulyatsion, akustik, perceptiv (psixofonetik) va funksional tomonlari] va ohang (bo'g'in, sintagma, urg'u va boshqalar), Adabiy til me'yorlariga to'la mos kelishi uchun bu adabiy me'yorlarni u mukammal o'rganmog'i hayotiy zaruratdir. Agar o'qituvchi nutqi adabiy til me'yorlariga to'la mos kelsa bu o'quvchilarning yutug'idir. Chunki bola ustozidan ta'lif oladi, hattoki unga taqlid ham qiladi. To'g'ri, boshqa soha vakillaridan ham adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda so'zlash talab etiladi. Ammo o'qituvchi kelajak avlod tarbiyachisi sifatida bola dunyoqarashini shakllantiradi. Shuning uchun ham o'qituvchi har qanday vaziyatda va har qanday sharoitda o'z nutqiga e'tiborli bo'lmog'i talab etilishi, Grafika muayyan tilning fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfologik birliklarini yozuvda ifodalash uchun maxsus shakllantirilgan optik-grafik belgilari tizimidir. Bu tizim belgilaringning har biri grafik tilshunoslikda grafemalar sanaladi. Yozuvning tovush tili bilan aloqasi, odatda, ana shu grafemalar vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun ular grafik tizimning eng asosiy strukturaviy-funksional birligi hisoblanadi.Grafema tashqi (moddiy) va ichki (mavhum) tomonlari bor bo'lgan bilateral birlikdir. U shu ikki tomonning -</p>

	<p>ifodalovchi va ifodalanuvchilarning uzviy bog‘liq bo‘lishi. foydalana olishi; (ko‘nikma).</p> <p>- Nutqning madaniyligini ta’min etadigan to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo‘yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o‘zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchiga yetkazish, shu yo‘l bilan unga ta’sir qilishdan iborat bo‘lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta’sirchanli malakalarga ega bo‘lishi kerak.</p>
4.	<p style="text-align: center;">VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyiham; • jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyiham
5.	<p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;">X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qodirova F.U., Yunusova X.Sh., Inklyuziv va korreksion ta’limning filologik asoslari texnologiyalar , 2022 yil, ZEBO_PRINT 2. Qo‘ng‘urov R., va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 1992. 3. Begmatov E., va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. -Toshkent, 1973. 4.Nosirov P. O‘zbek nutq madaniyati//O‘quv qo‘llanma. –T.:O‘AJBNT, 2004. 5.Sultonsaidova S., O‘.Sharipova. O‘zbek tili stilistikasi//O‘quv qo‘llanma. –T., 2009. <p style="text-align: center;">XI. Qo‘srimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Avvalboyeva D., Imo-ishora tili,Toshkent 2021 2. Qodirova F.U., Sayfullayeva I.Q., Inklyuziv va korreksion ta’limda Art texnologiyalar, 2022 yil, ZEBO_PRINT 3. Qodirova F.U., Achilova S.J., Dehqanova M.G’, Logopedik texnologiya. 2023 yil 4. Qodirova F.U., Dehqanova M.G’, Pulatova D.A., Ibadullayeva SH.N., Surdopsixologiya, 2023 yil 5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b. 6. Jivanova N., Mo‘minova O., Maksumova S. Nutq madaniyati. 1va 2-kitob.

	<p>–Toshkent: Navro‘z, 2016.</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.</p> <p>http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.</p> <p>www.pedagog.uz</p> <p>www.cspl.uz</p> <p>www.pedagog.uz</p> <p>www.edu.uz</p> <p>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)</p> <p>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portalı</p>
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “_____” _____dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sul:</p> <p>Dehqanova M.G’.- Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasи o’qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Teshaboyeva Feruza - Qo’qon davlat pedagogika institute, maxsus pedagogika kafedrasи dotsenti (Phd);</p> <p>Abdujalilova Shoira Abdumajitovna- CHDPU, Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasи dotsenti (Phd).</p>